

**YANGI O‘ZBEKISTONNI BARPO ETISH DAVRIDA MADANIY HAYOTNI
YANGILASH JARAYONI**

Tilavova Z. -
mustaqil tadqiqotchi

Har qanday jamiyatning demokratik yangilanishi va modernizatsiyalashuvi faqatgina iqtisodiy va siyosiy islohotlar bilan cheklanib qolmay, balki chuqur ma'naviy-madaniy evrilishlarni ham taqozo etadi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, nafaqat iqtisodiy-siyosiy, balki mustahkam madaniy-ma'naviy poydevorsiz barpo etilgan siyosiy va iqtisodiy institutlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlay olmaydi [5. 14-15.].

Jahon tarixi shundan dalolat beradiki, insoniyat rivojlanishining har bir yangi bosqichida jamiyatning madaniy sohasiga doir taraqqiyot tamoyillarining yangi-yangi qirralari ochilavergan. Mavzuning ayni shu jihati "Avesto" zamonlaridan bugungi kunlargacha, mashhur allomalar, hozirgi zamon olimlari va ko'plab mutaxassislarni o'ziga jalb qilib kelmoqda.

Jamiyatning madaniy hayoti o'z navbatida, ularning har biri uchun umumiy tayanch tushuncha sifatida namoyon bo'ladi va ushbu sohalaridagi jarayonlarning mazmun-mohiyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatdan, "Madaniy taraqqiyot" tushunchasida barcha madaniy qadriyatlar haqidagi qarashlar, shu asosda shakllangan insoniy fazilatlar hamda ijtimoiy jihatlar o'z aksini topadi. Bu jihatdan, madaniyat insonga xos ezgu xususiyat va fazilatlar majmuasi bo'lishi bilan birga, bizningcha, har bir jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniy qadriyatlar majmuidir.

Ushbu masalaga nisbatan bunday qaralsa, har qanday jamiyat, jumladan O'zbekiston madaniy taraqqiyot tamoyillari madaniyat, ma'rifat, din va boshqalar ham bu sohadagi jarayonlar bilan uzviy bog'liq ekanligi ma'lum bo'ladi. Bu qoidaga ko'ra, u yoki bu hududda ijtimoiy mezonlar o'zgarishi mumkin, biroq madaniy taraqqiyot tamoyillarining ma'rifiy, madaniy, diniy sohalaridagi uzluksizligini ta'minlab turuvchi an'anasi o'z ahamiyatini saqlab qolaveradi.

Har qanday jamiyatda, jumladan demokratik taraqqiyot tamoyillarini amalga oshirayotgan bizning mamlakatda ham ushbu tizim uchun uni tashkil etuvchi madaniy taraqqiyot tamoyillarining turli jihatlari va yo'nalishlari muhim. Bu jabhada muayyan uyg'unlik va munosiblik, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, kishilar o'rtasida shakllangan va barqarorlashgan munosabatlar chambarchas bog'liqlikda amal qiladi. Bunday o'zaro bog'liqlik milliy va umumbashariy qadriyat hisoblanayotgan demokratiyaning asosiy madaniy kuchi va imkoniyatlarini yaqqol ko'rsatadi.

Jamiyatning madaniy rivojlanish strategiyasida muayyan davr va jamiyatga xos belgilar, davlat siyosati bilan bog'liq xilma xil xususiyatlar va inson kamoloti bilan bog'liq turlicha namoyon bo'ladigan ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma'rifiy jihatlar, aholi, ayniqsa yoshlarning ruhiyati va kayfiyati ham muhim o'rin egallaydi. Bunday belgilar va o'ziga xos jihatlar ushbu masalalarga doir tushunchalarning turli xususiyatlariga ta'sir ko'rsatadigan falsafiy tamoyillar uchun umumiy mezon va tayanch omillar bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida bu boradagi o'zgarishlarning boshqa sohalar qatori, madaniy taraqqiyot jarayonlariga ta'sir ko'rsatish jarayonidagi o'rni va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ayni paytda, ushbu jarayonning jamiyat madaniy taraqqiyot tamoyillarida aks etishi, uning har bir yo'nalishi va turli sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati va amaliy natijalarini izchil o'rganish, bu bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish vazifalari ham nihoyatda dolzarb mazmun kasbe tmoqda.

O'zbekistonda 2016-yildan boshlangan va bugungi kunda "Yangi O'zbekiston" strategiyasi doirasida davom ettirilayotgan tub islohotlarning tub mohiyati inson kapitalini rivojlantirish va uning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan [2.45.]. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson manfaatini himoya qilish, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida qaror toptirishdan iborat. Bu jarayonda madaniy hayotni yangilash, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda umumbashariy madaniyat yutuqlari bilan integratsiyalashuv ustuvor vazifa etib belgilandi [7. 22.]. Prezident Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatdir" [2. 112.].

2016–2026-yillarda O‘zbekistonning madaniy hayoti yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy qadriyatlarni tiklash, madaniyat va san‘at muassasalarini modernizatsiya qilish, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash hamda xalqaro madaniy diplomatiyani rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi [8. 12.].

O‘zbekiston zamonaviy tarixida 2016-yil burilish davri sifatida alohida o‘rin egallaydi. Jamiyatni demokratlashtirish va erkinlashtirish, Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida keng ko‘lamli islohotlar boshlandi. Bu jarayonni belgilab bergan eng muhim hujjatlar – Harakatlar strategiyasi hamda 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidir [2. 18-20.].

Yangi O‘zbekistonda madaniy hayotni yangilashning dastlabki qadami sohaning huquqiy bazasini mustahkamlashdan boshlandi. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 53-moddasida: "Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g‘amxo‘rlik qiladi" deb mustahkamlab qo‘yildi [1. 24.]. Shuningdek, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to‘g‘risida"gi Qonunning qabul qilinishi soha xodimlari va ijodkorlar huquqlarini himoya qilishda muhim burilish bo‘ldi [3. 3-5.].

Ijtimoiy sohada islohotlar natijasida ta‘lim tizimi ham tubdan kengaytirildi. 2019-yil 8-oktabrdagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi doirasida oliy ta‘lim muassasalari soni jadal o‘tdi. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekistonda oliy ta‘lim muassasalari soni 2015/2016-o‘quv yilidagi 69 tadan, 2024/2025-o‘quv yili boshiga kelib 222 taga yetdi (3,2 barobar oshdi) [8. 34.].

2016–2026-yillar oralig‘idagi o‘n yillik O‘zbekistonning madaniy hayotida "Ochiqlik va Renessans sari intilish" davri sifatida tavsiflanadi [6. 89.]. Bu davrda madaniyat nafaqat ma‘naviyat asosi, balki mamlakatning xalqaro imidjini belgilovchi strategik sohaga aylandi [2. 135.]. Bu davrda O‘zbekiston o‘zining qadimiy an‘analarini dunyoga tanitishda yangi bosqichga chiqdi. Ushbu davrdagi madaniy yangilanish jarayonlari quyidagi to‘rtta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ldi:

- **Me‘moriy meros va obodonlashtirish ishlari:** Qadimiy shaharlar (Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz) qiyofasi yangilanib, YuNESKO bilan hamkorlikda tarixiy obidalar muhofazasi kuchaytirildi [8. 18.]. Toshkentda "Yangi O‘zbekiston" majmuasi, G‘alaba bog‘i kabi qadriyat maskanlari barpo etildi [2. 140.].

- **Milliy qadriyatlar va ma‘naviy tiklanish:** Yangi O‘zbekiston g‘oyasining o‘zagi Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga borib taqaladi [2. 8.]. Shu maqsadda buyuk ajdodlar hamda Jadidchilik harakati namoyandalari merosini chuqur o‘rganish yo‘lga qo‘yildi [6. 104.]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi PQ-2855-son qaroriga muvofiq, ma‘naviy-ma‘rifiy muloqotni kuchaytirish maqsadida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi va uning zamonaviy majmuasi 2019-yilda foydalanishga topshirildi [4. 1-2.].

- **Infratuzilmani rivojlantirish va "Madaniyat – chekka hududlarga" tamoyili:** Ilgari madaniy hayot asosan poytaxt va yirik markazlarda jamlangan bo‘lsa, bugun islohotlar chekka hududlarni ham qamrab olmoqda. Hozirgi kunda respublika bo‘ylab 800 dan ortiq madaniyat markazlari faoliyat yuritmoqda [8. 21.]. Shuningdek, respublikada milliy-madaniy markazlar soni ham o‘shirib bormoqda (1992-yildagi 10 tadan 2024-yilga kelib 150 taga yetdi) [8. 23.]. Muzeylar (127 ta) va teatrlar (49 ta) sonida ham barqaror o‘shirib kuzatildi [8. 25.]. "Kitobsevar millat" g‘oyasi doirasida yangi axborot-kutubxona markazlari barpo etildi [6. 115.].

- **Xalqaro festivallar va madaniy diplomatiya:** O‘zbek milliy maqom san‘ati va baxshichilik maktablari davlat muhofazasiga olindi [3. 12.]. "Lazgi" raqsi, baxshichilik, milliy shirinliklar va xattotlik san‘ati YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi [8. 29.]. Shahrisabzda Xalqaro maqom san‘ati anjumani, Qo‘qonda Xalqaro hunarmandchilik festivali, Termizda Xalqaro baxshichilik san‘ati festivali an‘anaga aylandi.

2024-yil avgust oyida Samarqandda o‘tkazilgan "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali doirasida taqdim etilgan, 22 ta eng sara milliy mumtoz navolarni o‘z ichiga olgan "Maqom kapsulasi" loyihasi milliy musiqamizni dunyoga targ‘ib qilishda yangi sahifa ochdi [8. 31.]. Ushbu kapsula muallifi Yunus Rajabiy nomli O‘zbek milliy musiqa san‘ati instituti rektori E.Shermanov

va soha mutaxassisleri hisoblanadi. Ushbu festival xalqlar o'rtasidagi madaniy ko'prik bo'lib xizmat qilmoqda (taqqoslash uchun: 1997-yildagi ilk festivalda 31 ta davlat qatnashgan bo'lsa, keyingi davrlarda qatnashchi davlatlar soni 56 tadan oshib ketdi) [8. 32.]. Madaniyat xalqaro miqyosda O'zbekistonning "yumshoq kuch" (Soft Power) siyosatini yuritish vositasiga aylandi [7.41.].

Islohotlarning muvaffaqiyatiga qaramay, bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat davrida sohada hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud: Ular:

- **"Ommaviy madaniyat" tahdidi:** G'arb sivilizatsiyasining yengil-elpi "pop-madaniyati" namunalari internet orqali yoshlar ongiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [6. 142.]. Demokratik tamoyillar buni taqiqlashni emas, balki unga javoban milliy ruhda muqobil, jozibador va sifatli zamonaviy kontent (kino, musiqa, animatsiya) yaratishni talab qiladi [7. 46.].

- **Kadrlar va motivatsiya masalasi:** Madaniyat va san'at sohasi xodimlarining maoshlari oshirilgan bo'lsa-da, oliy ma'lumotli yosh kadrlarning chekka hududlarda ishlashga motivatsiyasi hamon pastligicha qolmoqda [8. 40.].

- **Menejment tizimining eskirganligi:** Madaniyat muassasalarini boshqarishda zamonaviy art-menejment va madaniy marketing qoidalarini qo'llash oqsayapti; teatr va muzeylar o'zini-o'zi to'liq moliyalashtirish darajasiga o'ta olmagan [3. 22.].

Madaniyat sohasini yanada rivojlantirishda, afsuski, yechimini kutayotgan muammolar hali hanuz mavjud. Bu borada quyidagi taklif va yechimlar o'rinli deb hisoblaymiz:

1. Oliy ta'lim muassasalari o'quv dasturlarida "Art-menejment va madaniy turizm" ixtisosliklarini kengaytirish [8. 45.].

2. Soliq imtiyozlari berish orqali xususiy sektorni va metsenatlikni sohaga jalb etish [3. 17.]. (Metsenatlik — madaniyat, san'at, ilm-fan, ta'lim va ma'rifat sohalarini rivojlantirish uchun shaxs yoki yuridik shaxslar (tadbirkorlar, tashkilotlar) tomonidan ixtiyoriy ravishda ko'rsatiladigan moddiy va boshqa yordamdir. Bu jarayon ko'pincha manfaatsiz, faqat ezgu maqsadlar yo'lida amalga oshiriladi.)

3. Davlat buyurtmalarini shakllantirishda tomoshabin talabi va milliy g'oyani uyg'unlashtirish [6. 150.].

2016–2026-yillar oralig'idagi o'n yillik O'zbekistonning madaniy hayotida "Ochiqlik va Renessans sari intilish" davri bo'ldi [2. 152.]. Bu davrni qisqacha "Milliy qadriyatlarni zamonaviylashtirish davri" deb atash mumkin. Ushbu davr yakuniga kelib, O'zbekiston madaniy hayoti "yopiq tizim"dan "global madaniy maydon"ga aylandi [7. 53.]. Madaniyat endi faqat davlat tadbirlari uchun vosita emas, balki iqtisodiy daromad keltiruvchi (turizm orqali) va milliy o'zlikni xalqaro maydonda namoyon etuvchi strategik sohaga aylandi [2. 160.].

Demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va yangi O'zbekistonni qurish sharoitida madaniy hayotni yangilash – umummilliylik kasb etuvchi strategik jarayondir [5. 38.]. Milliy ildizlarga sodiqlik va jahon sivilizatsiyasi yutuqlariga ochiqlik kelajakda davlatimizning dunyodagi eng rivojlangan va demokratik mamlakatlar qatoridan joy olishini kafolatlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi [6. 182.].

Davlatimiz tomonidan madaniyat va san'at sohasiga oid ishlab chiqarilayotgan Famronlar, Qarorlar, Qonunlar ushbu sohaning taraqqiy etishida o'rni katta. Shu jumladan, "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi PQ-4038-son qarori, O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 20 yanvarda qabul qilingan O'RQ - 668-son "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuni. 2021 yil 6 apreldagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari va Farmonlari bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kundagi shiddat bilan o'zgarib borayotgan globalizatsiya jarayonlarining ba'zi ijobiy tomonlarini ham inkor etib bo'lmaydi. Misol tariqasida yoshlarning chet tilini mukammal tarzda o'zlashtirib, oliygohlarga yaxshi baholar to'plab kirishi, o'zga millat vakillarining madaniyatini o'rganish va o'zbek madaniyatini dunyoga tanitishda ijobiy natijalarga erishmoqdalar. Globallashuv jarayonlarining salbiy jihatlarini esa kundan-kunga ko'payib bormoqda. Buni tashqi

va ichki xavflar misolida ko'rishimiz mumkin. Ayniqsa hozirgi kundagi virtual dunyoga yoshlarning mukkasidan ketishi, media makondagi ommaviy harakatlar, turli xildagi behayo videoroliklarning, saviyasiz va ma'nosiz ba'zi seriallarning ochiqdan-ochiq televidenie va ijtimoiy tarmoqq orqali namoyish etilishi albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmayapti. Bu kabi muammolarni bartaraf qilishda mutaxassis madaniyat va san'at ahli bir bo'lib ish tutmoq, televidenie madaniyatiga rioya qilish, san'takor etikasi, madaniyat targ'ibotchilari maydonga fikr xujumi orqali chiqishlari, shu ma'nodagi turli xil ko'rsatuvlarni olib chiqish albatta o'zining ijobiy samarasini beradi, deb o'ylaymiz.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'RQ-697-son, 2021-yil 20-may.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-2855-sonli qarori.
5. Karimov I.A. Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. - Toshkent: «O'zbekiston», 2012.
6. Nazarov Q. Milliy g'oya va ma'naviy hayot. – Toshkent: "Falsafa va huquq instituti", 2019.
7. Ergashev I. Jamiyat modernizatsiyasi va ma'naviy yangilanish. // O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayoti jurnali. – 2022. – №3.
8. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining rasmiy hisobotlari va statistik ma'lumotlari (2024-2025-yy.).
9. Муминов А.Г., Г.Барноева Ўзбекистон Президенти – глобал тараққиётнинг янги моделини яратётган бош меъмор “Макон ва замон” журналі, 2026 йил, №1, 25-30-бетлар

REZYUME:

Yangi O'zbekistonni barpo etish va demokratik islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida mamlakat madaniy hayotida yuz berayotgan tub o'zgarishlar va yangilanish jarayonlari ilmiy tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, demokratik islohotlar, madaniyat strategiyasi, milliy o'zlik, madaniy meros, ma'naviyat, globalashuv, metsenatlik, madaniy integratsiya.

RESUME:

The fundamental changes and renewal processes taking place in the cultural life of the country in the context of the establishment of a new Uzbekistan and the deepening of democratic reforms were scientifically analyzed.

Keywords: New Uzbekistan, democratic reforms, cultural strategy, national identity, cultural heritage, spirituality, globalization, patronage, cultural integration.

PEZIOME:

В данной работе проведен научный анализ фундаментальных изменений и процессов обновления, происходящих в культурной жизни страны в контексте становления нового Узбекистана и углубления демократических реформ.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, демократические реформы, культурная стратегия, национальная идентичность, культурное наследие, духовность, глобализация, патронаж, культурная интеграция.